



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa’dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN’IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O’RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O’ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA “ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)” MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdukurimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI	42
Umarova Dilfuza Raxmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O’RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich	



MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI



Mizamova Umida Jamoliddin qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Makroiqtisodiy siyosat va prognozlashtirish kafedrasini tayanch doktoranti
E-mail: mizamovaumida807@gmail.com
ORCID: 0009-0007-6027-8089

Annotatsiya. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning o'рни, ularning iqtisodiy mazmun-mohiyati hamda investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishni ta'minlash, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, bandlik darajasini oshirish va eksport salohiyatini kengaytirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijasida xorijiy investitsiyalarni jalb etish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy o'sish, investitsion muhit, milliy iqtisodiyot, kapital oqimi, innovatsiyalar.

Аннотация. Проанализированы роль иностранных инвестиций в развитии национальной экономики, их экономическая сущность и теоретические основы привлечения инвестиций. Освещено значение иностранных инвестиций в обеспечении экономического роста, ускорении инновационного развития, повышении уровня занятости и расширении экспортного потенциала. По результатам исследования разработаны научные выводы и практические рекомендации, направленные на повышение эффективности привлечения иностранных инвестиций.

Ключевые слова: иностранные инвестиции, прямые иностранные инвестиции, экономический рост, инвестиционный климат, национальная экономика, движение капитала, инновации.

Abstract. The role of foreign investment in the development of the national economy, its economic essence, and the theoretical foundations of attracting investment are analyzed. The significance of foreign investment in promoting economic growth, accelerating innovation-driven development, increasing employment, and expanding export potential is highlighted. Based on the research findings, scientific conclusions and practical recommendations aimed at improving the effectiveness of attracting foreign investment have been developed.

Keywords: foreign investment, foreign direct investment, economic growth, investment climate, national economy, capital flows, innovation.

KIRISH

Xorijiy investitsiyalar – bu xorijiy investorlar tomonidan foyda olish yoki ijtimoiy samara keltirish maqsadida boshqa mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar majmuidir. Ular kapital, texnologiya, intellektual mulk, qimmatli qog'ozlar va boshqa aktivlar ko'rinishida amalga oshirilishi mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda xorijiy investitsiyalar quyidagi shakllarda tasniflanadi:

- to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI);
- portfel investitsiyalar;
- xalqaro kreditlar va qarzlari;
- qo'shma korxonalar shaklidagi investitsiyalar.



Ular orasida to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar iqtisodiyot rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi investitsiya turi hisoblanadi. Chunki ular nafaqat moliyaviy resurslarni, balki ilg'or texnologiyalarni, boshqaruv tajribasini va zamonaviy ishlab chiqarish usullarini ham olib kiradi.

Har bir rivojlangan mamlakat iqtisodiyotini ko'rib chiqadigan bo'lsak, eng avvalo investitsiya muhitining sog'lomligi hamda uning jozibadorligi natijasida investitsiyalar oqimining jadal kirib kelishi orqali mamlakat iqtisodiyoti bilan bog'liq tendensiyalarning ijobiy natijalarga erishayotganiga guvoh bo'lamiz. Hozirgi kunda jahonda kechayotgan globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida investitsiya oqimlarining roli katta ahamiyat kasb etadi. Davlatlar retsiyent sifatida xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonida o'rta va yirik biznesni tashkil etish hamda uni samarali yuritish uchun mamlakatdagi investitsiya salohiyati, yaratilgan zamonaviy infratuzilma, investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, xorijiy kompaniyalarning erkin faoliyat yuritishi uchun yaratilgan sharoitlar, xususiy mulk daxlsizligi, maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalarining mavjudligi, shuningdek, soliq va boshqa moliyaviy imtiyozlarga alohida e'tibor qaratadilar.

O'zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida oqilona investitsiya siyosati asosida barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash, 2030-yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish hamda daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son¹ Farmonida "... kelgusi besh yilda 120 mlrd AQSh dollari, jumladan 70 mlrd AQSh dollari miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish" vazifasi belgilab qo'yilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish masalalari bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik masalasi iqtisodiy nazariyaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida keng o'rganilgan.

R. Solou 1956-yilda ishlab chiqqan neoklassik iqtisodiy o'sish modelida kapital jamg'arilishi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha, investitsiyalar hajmining ortishi ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligining o'sishiga olib keladi.

P. Romer va R. Lukas tomonidan ishlab chiqilgan endogen iqtisodiy o'sish nazariyasida innovatsiyalar, bilim va inson kapitalining iqtisodiy o'sishdagi roli yoritilgan. Mazkur nazariyaga ko'ra, xorijiy investitsiyalar texnologik taraqqiyotning muhim manbai hisoblanadi.

J. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan OLI (Ownership–Location–Internalization) modeli xorijiy investitsiyalar oqimini tushuntiruvchi eng mukammal nazariyalardan biri hisoblanadi. Unga ko'ra, investorning xorijiy mamlakatga kirib borishi mulk ustunligi, hududiy ustunlik va ichkilashtirish afzalliklari bilan belgilanadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham investitsion muhit va xorijiy investitsiyalar hajmi o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjudligi ta'kidlangan.

Shu bilan birga, professor B. Y. Xodiyev va professor Sh. Sh. Shodmonov investitsiyalarga quyidagicha ta'rif berganlar: "Investitsiyalar — asosiy va aylanma kapitalni qayta tiklash va ko'paytirishga, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflarning pul shaklidagi ko'rinishidir"². Olimlar ushbu ta'rifda asosiy e'tiborni ishlab chiqarishga qaratganlar, ya'ni investitsiyalarni korxonalarining asosiy va aylanma kapitalini qayta tiklash va ko'paytirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qilingan sarflar sifatida talqin qilganlar.

Iqtisodchi olim A. Shomirovning tadqiqotlariga ko'ra, respublikamizda aksiyadorlik jamiyatlari qaysi sohada faoliyat ko'rsatishidan qat'i nazar, qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish, jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. U aynan aksiyadorlik jamiyatlariga investitsiyalarni jalb qilishning eng zamonaviy usullaridan biri IPO mexanizmini qo'llash³ ekanligini ta'kidlagan. Fikrimizcha, IPO orqali kapital bozorlariga chiqish nafaqat kompaniyaning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi, balki uning ochiqlik, shaffoflik va ishonchlilik darajasini ham oshiradi.

Yana bir iqtisodchi olim Sh. Mustafakulov investitsion muhit jozibadorligini quyidagicha ifodalagan: "Mamlakatning xo'jalik rivojlanish sharoitlarini tavsiflovchi va undagi investitsion faollikning shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik va ekologik ko'rsatkichlarning umumiy

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

2 B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. 2017 y. 454-b

3 Shomirov Aziz. "The role of IPO mechanisms in attracting investments to joint stock companies: necessity and prospects", International Finance and Accounting: Vol. 2021: Iss. 1, Article 19.



darajasi⁴". Fikrimizcha, ushbu yondashuv investitsion jozibadorlikni baholashda faqat moliyaviy yoki huquqiy omillar emas, balki keng qamrovli tizimli va kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Professor N. Haydarov investitsiyalarga quyidagicha ta'rif bergan: "Investitsiya mulk shaklidan qat'i nazar, tadbirkorlik asosida faoliyat ko'rsatayotgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki davlatning iqtisodiy va ijtimoiy samara olish maqsadida o'z ixtiyoridagi moliyaviy, moddiy va intellektual boyliklarini qonun doirasida har qanday tadbirkorlik obyektiga sarflashidir⁵". Fikrimizcha, ushbu ta'rif investitsiyaning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham to'liq ifodalaydi. Ya'ni, investitsiyalar shunchaki kapital qo'yilmalar emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi kompleks vositadir.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etishning bir qancha nazariy asoslari mavjud.

Neoklassik nazariya. Neoklassik nazariya investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida baholaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, kapital qo'yilmalarining ortishi ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga olib keladi.

Harrod–Domar nazariyasi. Mazkur model iqtisodiy o'sishning investitsiyalar hajmiga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Investitsiyalar qancha yuqori bo'lsa, iqtisodiy rivojlanish sur'ati ham shuncha yuqori bo'ladi.

Endogen iqtisodiy o'sish nazariyasi. Mazkur nazariyada innovatsiyalar va bilimlar iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida qaraladi. Xorijiy investitsiyalar esa ushbu jarayonning katalizatori vazifasini bajaradi.

Institutsional yondashuv. Institutsional nazariyaga ko'ra, investitsiyalar oqimi davlat boshqaruvi sifati, qonunchilik tizimi, korrupsiya darajasi va biznes yuritish sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarining milliy iqtisodiyot rivojlanishida investitsion jozibadorlikning o'rni va ahamiyatini yorituvchi ilmiy asarlari hamda maqolalari o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida iqtisodiy-statistik tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish va mantiqiy fikrlash usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, xalqaro tashkilotlarning statistik ma'lumotlari, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunda iqtisodiy omillarga tayangan holda aytish mumkinki, investitsiyalar mamlakat iqtisodiyotini sezilarli darajada harakatga keltiruvchi muhim drayver hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval
O'zbekistonda o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi (2020–2025-yillar)⁶

Yil	Xorijiy investitsiyalar hajmi (mlrd AQSh dollari)	O'sish sur'ati (%)
2020	6,6	–
2021	8,1	122,7
2022	11,9	146,9
2023	13,7	115,1
2024	34,8	254,0
2025	43,1	123,9

2024-yilda xorijiy investitsiyalar hajmi 34,8 mlrd AQSh dollariga yetgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 43,1 mlrd AQSh dollarini tashkil etib, 23,9 foizga oshgan.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2020–2025-yillarda O'zbekistonga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 6,6 mlrd AQSh dollaridan 43,1 mlrd AQSh dollariga yetib, qariyb 6,5 baravar oshgan. Ayniqsa, 2024–2025-yillarda investitsion faollik sezilarli darajada kuchaygan. Bu holat investitsiya muhitini yaxshilash, investorlar uchun huquqiy kafolatlarni mustahkamlash hamda yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish bilan izohlanadi (2-jadval).

4 Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. – T.: Baktria press, 2017. – 18-b.

5 Haydarov N.H. "Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida korxonalar investitsion faoliyatidagi moliya-soliq munosabatlarini takomillashtirish masalalari". Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: 2003. B. 29. 14

6 O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



2-jadval
2025-yilda O'zbekistonda o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar
va kreditlarning iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi⁷

Tarmoq	Ulushi (%)
Ishlab chiqarish (sanoat)	32,9
Elektr energiyasi va gaz ta'minoti	18,4
Tog'-kon sanoati	12,2
Qishloq xo'jaligi	9,1
Qurilish va logistika	6,1
Suv ta'minoti va kanalizatsiya	1,8
Sog'liqni saqlash	1,7
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	0,9
Boshqa tarmoqlar	11,6
Jami	100,0

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2025-yilda xorijiy investitsiyalar va kreditlarning eng katta qismi ishlab chiqarish (sanoat) tarmog'iga (32,9 foiz) yo'naltirilgan. Bu mamlakatda sanoatni modernizatsiya qilish, import o'rnini bosuvchi hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan investitsiya siyosatining natijasidir.

Ikkinchi yirik ulush elektr energiyasi va gaz ta'minoti sohasiga (18,4 foiz) to'g'ri kelmoqda. Mazkur holat energetika infratuzilmasini rivojlantirish hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tog'-kon sanoati (12,2 foiz) va qishloq xo'jaligi (9,1 foiz) ham xorijiy investorlar uchun jozibador tarmoqlar hisoblanadi. Qurilish, transport-logistika va raqamli iqtisodiyot yo'nalishlariga yo'naltirilayotgan investitsiyalar esa mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasini qo'llab-quvvatlamqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- xorijiy investitsiyalar iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi;
- investitsion muhit va to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) oqimi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud;
- yuqori texnologiyali investitsiyalar iqtisodiyot samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi;
- yashil investitsiyalar va innovatsion loyihalarni rag'batlantirish kelgusida ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi lozim.

Yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va tavsiyalardan kelib chiqqan holda, ularni chuqur o'rganish, tahlil qilish hamda ilmiy asoslangan holda amaliyotga tatbiq etish yaqin istiqbolda ijobiy natijalar berishi kutiladi. Shuningdek, mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratish orqali davlatning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirish, xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi. <https://president.uz/oz/lists/view/4057>
2. Solow R. A Contribution to the Theory of Economic Growth // Quarterly Journal of Economics. – 1956.
3. Romer P. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990.
4. Lucas R. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. – 1988.
5. Dunning J. H. Multinational Enterprises and the Global Economy. – London, 1993.
6. Harrod R. Towards a Dynamic Economics. – London, 1948.
7. Domar E. Capital Expansion, Rate of Growth and Employment // Econometrica. – 1946.
8. Rolik Y. A. A Complex Approach to Evaluating the Innovation Strategy of a Company to Determine Its Investment Attractiveness // Procedia – Social and Behavioral Sciences. – Vol. 99. – 2013.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. 2025-yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiyot va ijtimoiy sohaga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar tarkibi asosida hisoblangan.



9. Shomirov A. The Role of IPO Mechanisms in Attracting Investments to Joint Stock Companies: Necessity and Prospects // International Finance and Accounting. – 2021. – Vol. 2021. – Iss. 1. – Article 19.
10. Investitsiya sohasiga oid adabiyotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.
11. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008. – 37 b.
12. Mamatov B., Xujamkulov D., Nurbekov O. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. – T.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 608 b.
13. O‘zbekiston Respublikasi Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysining rasmiy veb-sayti ma‘lumotlari. – <https://uzcsd.uz>
14. UNCTAD World Investment Report.
15. World Bank Development Indicators.
16. OECD International Investment Statistics.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>